



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANING DARAJALARI, TUZILISHI VA NAZARIY ASOSLARI

Raxmonqulov Muhammadjon Xamroqulov

fizika-texnika fanlar professor dotsent(FarDU)

Solijonova Tursunoy Jo'rabek qizi

FarDU talabasi

Annotatsiya: *Maqolada pedagogik texnologiyalar o'quv jarayonlarida qo'llaniladigan amaliy mashg'ulotda ishlatiladigan jihozlar, metodlar jihoz turlari va bosqichlari, va o'tkaziladigan tartibiga oid tushunchalar keltirilgan.*

Kalit so'zlari: *umumpedagogik, xususiy metodik, lokal (modul), umumiydidaktik va umumtarbiyaviy texnologiyalar. Pedagogik texnologiyaning metodologik asosi.*

Аннотация: *В статье даны понятия, относящиеся к типам и видам оборудования, методам и процедурам проведения практических занятий, применяемым в педагогических технологиях в учебных процессах.*

Ключевые слова: *общепедагогический, частно-методический, локальный (модульный), общедидактический и общеобразовательные технологии. Методологическая основа педагогической технологии.*

Annotation: *The article presents concepts related to the equipment, methods of equipment types and types, stages, and the procedure in which pedagogical technology is carried out in practical training used in educational processes.*

Keywords: *generalpedagogical, private methodological, local (modular), generaldidactic and universal technology. Methodological basis of pedagogical technology.*

KIRISH

"Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar samarasi, avvalambor, yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, vatanimiz taqdiri va istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir yosh kadrlar safini kengaytirishga bog'liq"

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan "Ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish" hamda Innovatsion rivojlanish vazirligining asosiy faoliyat yo'nalishlaridan ta'lim tizimida innovatsiyalarni ishlab chiqishni ta'minlash³ kabi ustuvor vazifalari ta'lim muassasalarida o'qituvchilar innovatsion faoliyatini tashkil etish zarurligini ko'rsatmoqda. Chunki kasbiy ta'limning xalqaro andozalarga to'liq mosligini ta'minlash va ijtimoiy buyurtma asosida malakali



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

kadrlarni tayyorlashda yangi pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va innovatsion faoliyatga tayyorlash amaliyotiga joriy qilish ta'lim jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi. Pedagogika oliy o'quv yurtlari uchun mo'ljallangan pedagogik texnologiya o'quv dasturida ilgari surilgan talablarga muvofiq yaratildi. Bu fanning maqsadi - pedagogik texnologiya fanining nazariy-metodologik asoslarini ochib berish, bo'lajak pedagoglar tomonidan ularning chuqur o'zlashtirilishiga erishish, talabalarda pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli tashkil eta olish ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

Ta'lim jarayonini innovatsion tashkil etishda pedagogika sohasidagi bilimlardan foydalanish, ularni amaliyotda qo'llash metodlarini takomillashtirish bo'yicha AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Germaniya, Xitoy, Singapur, Janubiy Koreya kabi dunyoning rivojlangan mamlakatlarida ta'lim sohasini modernizatsiyalash, innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish, o'qitishning didaktik asoslarini global strategiyalar sifatida pedagogik amaliyotga tatbiq etish tendensiyalari kuzatilmogda. Rivojlangan mamlakatlarda ta'lim eng noyob kapital sifatida qadrlanayotgan bugungi sharoitda uzluksiz ta'limning barcha bosqichlarida "ta'lim sifatini baholash jarayoni va vositalarini takomillashtirish, erishilgan natijalarni aniqlash imkonini beruvchi mexanizmlarni amaliyotga joriy etish» dolzarb vazifa etib belgilandi.

Ta'lim amaliyotiga nisbatan pedagogik texnologiyaning uch sathi, ya'ni darajalari

quyidagicha belgilanadi:

umumpedagogik, xususiyy metodik, lokal (modul).

1. Umumiy pedagogik daraja. Umumiy pedagogik (umumiydidaktik umumtarbiyaviy) texnologiya ta'lim-tarbiya jarayonining yaxlit tizimligi, ma'lum bir region, o'quv yurti tomonidan uzluksiz ta'lim tizimining muayyan bir bosqichidagi texnologiyaning umumiy qo'nuniyatlari, ilmiy-nazariy asoslari, tamoyillari, amaliyotda qo'llashning umumiy xususiyatlari, shart-sharoitlarini ifodalaydi. Shu o'rinda qayd etish kerakki, uzluksiz ta'lim tizimining har bir bosqichida ta'lim mazmuni orqali tegishli o'ziga xos maqsad va vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutilganligi sababli, pedagogik texnologiya ham o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. Bu darajada pedagogik texnologiya pedagogik tizim tushunchasiga sinonim xisoblanadi. Uning tarkibiga ta'lim-tarbiya jarayonining maqsad va vazifasi, mazmuni, vosita va metodlari, tarbiya jarayonining ob'ekti va sub'ekti faoliyatining algoritmlari kiradi.

2. Xususiyy metodik darajada pedagogik texnologiyaning muayyan bir predmet, kursni o'qitish jarayonining maqsad va vazifalarini amalga oshirish



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

maqsadida foydalaniladigan ta'lim mazmuni, o'qitish vositalari, metodlari, shakllarining majmuasi tushuniladi.

3. Lokal (modul) darajada ta'lim-tarbiya jarayonining ma'lum bir qismining xususiy didaktik va tarbiyaviy maqsadini hal etishga qaratidgan texnologiya tushuniladi. Unda o'quvchilarning mustatsil ishlarini tashkil etish, o'quvchilar bilimni nazorat qilish, shaxsiy fazilatlarni shakllantirish kabi masalalar ko'zda tutiladi. Pedagogik texnologiyaning yuqorida qayd etilgan uchta darajasi bir-birini to'ldiradi va taqozo etadi. Biz pedagogik texnologiyani qo'llash haqida so'z yuritishdan avval, pedagogik texnologiyaning ilmiy asoslariga to'xtalib o'tamiz.

Pedagogik texnologiya bir qancha asoslarga ega. Bulardan eng ahamiyatlilari ijtimoiy, falsafiy, metodologik, didaktik, pedagogik, psixologik, fiziologik, gigienik, mafkuraviy, huquqiy-me'yoriy, iqtisodiy, tarixiy, nazariy, amaliy va boshqa asoslar hisoblanadi. Ular bilan qisqacha tanishib chiqamiz.

Pedagogik texnologiyaning ijtimoiy asosi har bir shaxs, jamiyat va davlatning ta'lim-tarbiya sohasidagi ehtiyojlaridan kelib chiqadi va shu ehtiyojlarni qondirishning maqsad va talablarini, tashkiliy shakllari va usullarini belgilaydi.

U shaxsning, jamiyatning va davlatning rivojlanishida asosiy omillardan hisoblanadi.

Pedagogik texnologiyaning falsafiy asosi uning maqsadlari hamda tashkiliy shakl va usullarining falsafiy jihatdan to'g'ri yo'nalishda bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi. Falsafiy oqimlar va yo'nalishlarning har biri ta'lim-tarbiya masalalariga o'ziga xos yondashadi. Shu sababdan pedagogik texnologiyaning falsafiy yo'nalishi uning to'g'ri yoki noto'g'riligini, jamiyatning ma'lum maqsadlariga muvofiq yoki zidligini ko'rsatadi. Bu pedagogik texnologiyalarga baho berishda asosiy ko'rsatkichlardan hisoblanadi.

Pedagogik texnologiyaning metodologik asosi uni amalga oshirishda qanday metodlarga asoslanilishini belgilaydi. Insonlarning olamni hamda o'zlarini

bilishlari turli tarixiy davrlarda turlicha asoslarga ega bo'lgan va ular o'ziga xos metodlarni keltirib chiqargan. Hozir olam va uning xususiyatlari haqida xolis ma'lumotlar olish, haqqoniy bilimlar hosil qilishning ilmiy metodologiyasi pedagogik texnologiyalarning metodologik asosi hisoblanadi. Metodologik asosning ilmiy jihatdan to'g'ri bo'lishi pedagogik texnologiyalar uchun zaruriy shartdir.

Pedagogik texnologiyaning didaktik asosi uning ta'lim-tarbiya qoida va tamoyillariga muvofiqligini belgilaydi. Didaktik talablar ta'lim-tarbiyaviy vazifalarning nazariy jihatdan to'g'ri bajarilishini ta'minlaydi.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

Pedagogik texnologiyaning didaktik jihatdan to'g'ri bo'lishi uning yuqori samaradorligining zaruriy sharti hisoblanadi. Buning uchun zamonaviy didaktikaning ilmiy xulosalaridan ijodiy foydalanish talab qilinadi.

Pedagogik texnologiyaning pedagogik asosi zamonaviy pedagogika fanining ilmiy xulosalaridan kelib chiqadi. Bunda pedagogik texnologiyaning umumiy tarkibiy tuzilishi, mazmuni, shakli, usullari, vositalari, pedagogik jarayonning tashkil qilinishi, olib borilishi, uning diagnostikasi, monitoringi, o'quv- mavzu rejalar va shu kabilarning ilmiy jihatdan to'g'ri bo'lishi ta'minlanadi.

Pedagogik texnologiyalar hozirgi pedagogika fanining rivojlanishida katta o'rin egallab bormoqda.

Pedagogik texnologiyaning psixologik asosi psixologiya fanining ilmiy xulosalari va tavsiyalari bilan belgilanadi. Ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida to'g'ri foydalanish orqaligana kutilgan natijaga erishish mumkin. Shu sababli pedagogik

texnologiya psixologiya qonunlarini to'liq hisobga olishi talab qilinadi. Ta'limning

har bir bosqichida tegishli yosh psixologiyasi xususiyatlariga moslashtirilgan pedagogik texnologiyalar qo'llaniladi. Har bir bosqichda tegishli darajadagi bilim va tarbiya beriladi. Bu masalalarni o'rganish bilan pedagogik psixologiya fani shug'ullanadi.

Pedagogik texnologiyaning fiziologik asosi ta'lim oluvchilar-ning turli yoshdagi fiziologik xususiyatlarini hisobga olishdan iborat. Bunda o'gil va qiz bolalar fiziologiyasidagi farqlar aloxida hisobga olinishi lozim. Pedagogik texnologiya jarayonida fiziologik talablarni hisobga olish sog'lom avlodnivoyaga yetkazishning zaruriy sharti hisoblanadi.


Pedagogik texnologiyaning gigienik asosi ta'lim-tarbiya jarayonida salomatlikni saqlash talablariga rioya qilishdan iborat. Bunda turli zararli va ortiqcha ta'sirlarni bartaraf qilish, o'quv sharoiti: yoritilganlik, harorat, havoning toza-ligi, ta'lim oluvchining va o'qituvchining ish o'rni, jihozlar, o'quv nagruzkalarining me'yorlari, didaktik vositalarning qulayligi, sifati va shu kabilar tibbiyot, fiziologiya, ergonomika, ekologiya talablariga, insonparvarlik va xalqparvarlik g'oyalariga muvofiq bo'lgan ilmiy asoslarda belgilab boriladi.

Bu talab va me'yorlarga rioya qilish pedagogik texnologiyani amaliyotga tatbiq etish imkoniyatini yaratadi. Bu masalalarni o'rganish bilan maktab gigienasi fani

shug'ullanadi.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"



Pedagogik texnologiya fanining quyidagi asosiy tushunchalari mavjud:

1. Texnologiya – biror ishda mahoratda, jarayonda qo'llaniladigan yo'llar, usullar majmuasi.
2. Pedagogik texnologiya – pedagogik va texnologik yondashuvlar integrasiyasidir.
3. Pedagogik loyihalash – yaratilgan modelni dastlabki va yakuniy ko'rinishda ishlab chiqish va uni amaliy qo'llash darajasiga yetkazishdan iborat.
4. Pedagogik tizim –bir biribilan o'zaro bog'langan mo'ayyan munosabatda bo'lgan elementlar bilan tasvirlangan yahlit ta'lim tizimidir.
5. Pedagogik innovasiya – pedagogik jarayonga yangilik kiritish.
6. Pedagogik jarayon – Ta'lim beruvchiva ta'lim oluvchi orasidagi ta'limiy va tarbiyaviy munisabatlar tizimi.

XULOSA

Mazkur mavzuda turli xil ma'lumotlardan foydalanilgan holda dars o'tish jarayonlari ochiqlab berildi. Turli xil usullar va diogrammlar bilash ishlash dars jaryonini qiziqarli qiladi va o'quvchi, talabalarni o'ziga jalb qila oladi. Bu ishlarni olib borishda esa bizga albatta axborot texnologiyalari kerak bo'ladi.

Axborot texnologiyasi insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida ham mavjud

bo'lgan bo'lsa-da, hozirgi zamon axborotlashgan jamiyatining o'ziga xos xususiyati

shundaki, sivilizatsiya tarixida birinchi marta bilimlarga erishish va ishlab chiqarishga sarflanadigan kuch energiya, hom ashyo, materiallar va moddiy iste'mol buyumlariga sarflanadigan xarajatlardan ustunlik qilmoqda, ya'ni axborot texnologiyalari mavjud yangi texnologiyalar orasida yetakchi o'rinni egallamoqda.

Axborot texnologiyalari industriyasi majmuini kompyuter, aloqa tizimi, ma'lumotlar ombori, bilimlar ombori va u bilan bog'liq faoliyat soxalari tashkil



qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. SH.M.Mirziyoev. Konstitutsiya-erkin va farovon hayotimiz, mamlkatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir-Toshkent: O'zbekiston, 2017. -22b
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.// O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. -T., 2017. -B.39.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni // QHMMB: 06/17/5264/0339-son 01.12.2017 y.
4. Azizxodjayeva N .N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat (darslik). - T.. 2006 y.
5. Ishmuxammedov P., Abdukodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. (o`quv qo`llanma). T., 2010.
6. Kolechenko A. K. Entsiklopediya pedagogicheskix texnologiy - SPb.: KARO, 2005g.
7. Selevko G. Pedagogicheskie texnologii na osnove didakticheskogo i metodicheskogo usoversh yenstvovaniya UVP (uchebnoe posobiya). - M. 2005